SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V6I1Y2026

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 1 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2026**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
6-jild, 1-son (yanvar, 2026). - 301 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Yakubov Akmal*
SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BOʻYICHA SIYOSATI ........ 09-21

*Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы*
МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.) ........ 22-31

*Gadoyev Dadaxon Xayrulloyevich*
DEGGARON MASJIDINING SOVET OʻLKASHUNOSLARI TOMONIDAN OʻRGANILISHI ........ 32-47

*Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich*
QOʻQON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TAʼMINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI ........ 48-53

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat oʻgʻli*
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BOʻYICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI ........ 54-58

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna*
OʻZBEKISTONDA OʻZINI OʻZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI ........ 59-68

*Karimov Xurshid Abdumannabovich*
ANʼANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA ........ 69-74

*Egamberdiyev Baxriddin Baxodir oʻgʻli*
OʻZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI ........ 75-82

*Norqulov Shahzod Shuhrat oʻgʻl*
IJTIMOIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR ........ 83-87

*Beshimov Xamidjon Sayidovich*
FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TAʼMINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI ........ 88-96

*Нишонов Сарвар Жасур угли*
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ).. 97-105

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR


*Uzakova Go'zal Sharipovna*
SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI ........ 106-112

*Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich*
ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 113-122

*Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI HAMDA IJTIMOIY ZARURATI ........ 123-132

*Марданов Жасурбек Отабек угли*
УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ........ 133-138

*Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li*
FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN DEB E'LON QILISHNING AYRIM MASALALARI ........ 139-143

*Jumumbetov Rasul Jengizbayevich*
GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI ........ 144-150

*Suyunov Bobir Bahodirovich,*
RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK: KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI ........ 151-155

*Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna*
ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

*Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li*
KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI ........ 164-168

*Хошимова Юлдузхон Олимжоновна*
СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ ........ 169-175

*Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli*
ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES: THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION ........ 176-180

*Aripov Abid Adilovich*
O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI ........ 181-189

*Tollibayeva Malika Ulmasjon qizi*
ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI: XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI ........ 190-197

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ........ 198-204

*Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna*
RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI ........ 205-212

*Nurmatov Jasur*
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI .......... 213-222

*Шадиева Сайёра Арифовна*
ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА .......... 223-233

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Umarov Bahrom Norboyevich*
DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA") .......... 234-241

*Qurbonova Barchinoy Mirzahamdamovna*
TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF .......... 242-246

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*
QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI .......... 247-251

*Temple Chimuanya Odimegwu*
REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE .......... 252-265

*Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li*
O'ZBEKISTON XUSUSIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI .......... 266-271

*Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi*
INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI .......... 272-277

*Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich*
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI .......... 278-283

*Kurbonova Shoxsanam*
TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI .......... 284-289

*Toxirov Shaxzod Toxirovich*
IJTIMOIY INTELLEKTNING TARKIBIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI .......... 290-294

*Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna*
GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIY FIKRLASH .......... 295-300

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 16 December 2025
**Accepted:** 1 January 2026
**Published:** 15 January 2026

*Article / Original Paper*

# COMPONENTS OF SOCIAL INTELLIGENCE AND ITS ROLE IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

**Tokhirov Shakhzod Tokhirovich**
independent researcher at the National Institute
of Educational Pedagogy named after Qori Niyoziy
www.chirchiqsspagent@gmail.com

**Abstract.** This article describes social intelligence, the dynamics of its study, the pedagogical essence of social intelligence, the role of a person in personal professional activity, the importance of social intelligence in stabilizing teacher-student relationships, its components, and the pedagogical characteristics of each component. Accordingly, this article serves as a source for the scientific and pedagogical community, researchers, and readers.

**Keywords:** social intelligence, social will, communication, self-management, synthesis, interpersonal relations, behavior, forms, social ability, social adaptation.

# IJTIMOIY INTELLEKTNING TARKIBIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI

**Toxirov Shaxzod Toxirovich**
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ijtimoiy intellekt, uning oʻrganilish dinamikasi, ijtimoiy intellektning pedagogik mohiyati, insonning shaxsiy kasbiy faoliyatida tutgan oʻrni, oʻqituvchi oʻquvchi munosabatlarini barqarorlashtirishda ijtimoiy intellektning ahamiyati, tarkibiy qismlari, har bir tarkibiy qismining pedagogik xususiyati bayon qilingan. Shunga koʻra ushbu maqola ilmiy pedagogik jamoatchilik, tadqiqotchi va oʻquvchilar uchun manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit soʻzlar:** ijtimoiy intellekt, ijtimoiy iroda, muloqot, oʻz oʻzini boshqarish, sintezivlik, shaxslararo munosabatlar, xulq-atvor, shakllari, ijtimoiy qobiliyat, ijtimoiy moslashuv.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N35

**Kirish.** Pedagogik xarakterdagi ijtimoiy intellekt oʻqituvchining jamoadoshlari, oʻquvchilari, maqsadlari, qiyinchiliklari va xulq-atvorini toʻgʻri tushunishi, ijtimoiy pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan harakat qilish, samarali muloqotga kirisha olish va ijtimoiy pedagogik munosabatlarni boshqara olish koʻnikmasini egaligini anglatadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Ijtimoiy intellekt tushunchasini E. Torndayk [1] keng koʻlamda asoslashga harakat qilgan. U shaxslararo munosabatlarning uzoq istiqboldagi holatini tasavvur qilish maqsadida ushbu atamaga murojaat qilgan. Kyeyinchalik esa D. Goulman [2], X. Gardner [3], R. Stenberglar [4] tomonidan rivojlantirilgan. Psixologlar ushbu tushunchani turlicha talqin qilganlar. 1937-yilda G. Allport ijtimoiy intellektni odamlar haqida tez, deyarli avtomatik xulosalar chiqarish, shaxsning ehtimoliy reaksiyalarini bashorat qilish qobiliyati bilan bogʻlagan. G. Allportga koʻra, ijtimoiy intellekt bu odamlar bilan

munosabatda yengillikni ta’minlaydigan maxsus “ijtimoiy qobiliyat” bo‘lib, uning asosiy natijasi tushunishning chuqurligi emas, balki ijtimoiy moslashuv hisoblanadi. [5]

Ijtimoiy intellektni o‘lchash uchun ishlab chiqilgan ilk ishonchli test muallifi J. Gilford [6] hisoblanadi. Uning fikricha, ijtimoiy intellekt umumiy intellekt omillariga bog‘liq bo‘lmagan intellektual qobiliyatlar tizimini tashkil etadi. Bu qobiliyatlar ham umumiy intellektual imkoniyatlar kabi uchta o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlar asosida tavsiflanadi. Ular: mazmun, jarayon va natijalar. J. Gilford bitta operatsiya bilishni ajratib, o‘z tadqiqotlarini xulq-atvor bilishiga qaratgan. Bu qobiliyat quyidagi oltita omilni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsning o‘z xulq-atvori tarkibiga kiradigan elementlarni bilishi, bu inson muayyan kontekstdan verbal va noverbal ekspressiv xulq-atvorni ajratish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

2. Xulq-atvor guruhlarini bilishi, inson xulqi haqidagi umumiy ma’lumotlar ichidan umumiy belgilarni ajrata olish qobiliyati.

3. Xulq-atvor ko‘rsatkichi bo‘lgan munosabatlarni bilish, xulq-atvor ko‘rinishilari orasidagi munosabatlarni anglash.

4. Xulq-atvor tizimlarini bilish, insonlar orasidagi o‘zaro ta’sir ko‘rsatish vaziyatlarining rivojlanish asoslari va dinamikasini bilish, ushbu vaziyatlardagi xulq ko‘rinishlari mohiyatini tushunish qobiliyati.

5. Xulq-atvor ko‘rinishlari transformatsiyalarini bilish, turli vaziyatlarda o‘xshash xulq-atvorning dastlabki mazmun mohiyatini bilish.

6. Xulq-atvorga oid harakatlarning natijalarini bilish, mavjud ma’lumotlarga asoslangan holda xulq-atvor ko‘rinishlarining oqibatlarini oldindan ko‘ra olish.

Ye.S. Mixaylova[7], X.Kdirbayeva[8], U.Buteva[9]lar ijtimoiy intellektni turli hayotiy vaziyatlarda insonlarning xulq-atvorini tushunish va bashorat qilish, ularning niyatlari, his-tuyg‘ulari va emotsional holatlarini verbal va noverbal ekspressiya asosida farqlay olish oid intellektual qobiliyat sifatida tavsiflaganlar. Mutaxassislar umumiy tarzda ijtimoiy intellektni tashkil etuvchi jarayonlarga ijtimoiy senzitivlik, ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy xotira va ijtimoiy tafakkurni kiritganlar. Shunga ko‘ra ijtimoiy intellekt shaxsning muloqoti va ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydigan integrativ xarakterdagi intellektual qobiliyatdir. U muloqotdoshlar, insonlar guruhi aks ettirish bilan bog‘liq bilish jarayonlarini mujassamlashtirish va tartibga solishni ta’minlaydi. Mutaxassilar ijtimoiy intellektni biror jarayon, ko‘pincha ijtimoiy tafakkur yoki ijtimoiy persepsiya bilan ham tenglashtiradilar.

**Tadqiqot muhokamasi va natijalari.** Ijtimoiy intellektning empatiya, muloqot, ijtimoiy idrok, o‘z o‘zini boshqarish kompetensiyasi, moslashuvchanlik va ijtimoiy amaliy ko‘nikmalarga egalik kabi tarkibiy qismlari mavjud bo‘lib, ular professor-o‘qituvchi va talabalar orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan **empatiya** o‘qituvchining o‘quvchining his-tuyg‘ularini aniq his etish, anglash, ularning ichki kechinmalarini tushunish va ularga nisbatan ruhiy hamdardlik bildirish qobiliyatidir. U “emotsiya” va “hissiyot” tushunchalarini o‘zida mujassamlashtirib, pedagogik va psixologik munosabatlar va o‘qituvchi o‘quvchilar asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Empatiya ijtimoiy intellektning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qituvchining o‘quvchilarni his qilish, anglash va ularga nisbatan madaniyatli munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida esa o‘qituvchi kasbiy mahoratining tarkibiy qismi sifatida jamoaviy munosabatlar, pedagogik-psixologik muhit va o‘quvchilarning faolligini ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Muloqot** oʻqituvchi ijtimoiy intellektining muhim tarkibiy qismi boʻlib, oʻqituvchi oʻquvchilar orasida almashish, oʻzaro bir birini tushunish, bir biriga taʼsir koʻrsatish va oʻzaro hamkorlikka kirishish imkoniyatidir. Pedagogik-psixologik jarayonda muloqot oʻzaro soʻzlashuvdan iborat emas, balki emotsional, ijtimoiy va perseptiv munosabatlarni qamrab olgan keng didaktik vosita hisoblanadi. Muloqot boʻlajak oʻqituvchining istiqbolda samarali pedagogik faoliyat koʻrsatishi, oʻquvchilar bilan hamkorlik oʻrnatishi va shaxslararo munosabatlarni toʻgʻri tashkil etishiga koʻmaklashadigan asosiy vosita hisoblanadi. U oʻqituvchi va oʻquvchilar orasida oʻzaro bir birini tushunish, ishonch, faollik, bir birini anglash, tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish imkoniyatini kengaytiruvchi didaktik jarayon hamdir.

Ijtimoiy intellektning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri **ijtimoiy idrokdir**. Boʻlajak oʻqituvchilarda ijtimoiy idrokni shakllantirish alohida pedagogik ahamiyatga ega, chunki ular ijtimoiy idrok yordamida istiqboldagi kasbiy faoliyatlari jarayonida oʻz oʻquvchilari va kasbdoshlari, ijtimoiy vaziyatlarni idrok qilish, baholash va tushunish imkoniyatiga ega boʻladilar. Ular hamkasblari, oʻquvchilari, ularning ota-onalarining tashqi qiyofasi, xulq-atvorini, istaklari, niyatlari, hissiyotlari, maqsadlarini, ijtimoiy pedagogik vaziyatlarning mohiyatini
toʻgʻri anglash va talqin qilish koʻnikmasiga ega boʻladilar. Ijtimoiy idrok pedagogik jarayon subyektlari orasidagi munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Ijtimoiy idrok oʻqituvchining oʻquvchilari va ijtimoiy vaziyatlarni toʻgʻri tushunishini taʼminlovchi psixologik qobiliyatidir. U boʻlajak oʻqituvchidarda istiqbolgai kasbiy faoliyati jarayonida oʻquvchilar guruhidagi vaziyatni toʻgʻri baholash, ularning holatini anglash, individual yondashuvni amalga oshirish va samarali hamda ular bilan muloqot oʻrnatishiga koʻmaklashadi.

Oliy pedagogik taʼlim muassalari talabalarida oʻz oʻzini boshqarish kompetensiyasi shakllantirish muhim ahamiyaga ega. Chunki oʻqituvchining oʻz hissiyotlari, xulq-atvori, vaqt va faoliyatini ongli tarzda rejalashtirishi, nazorat qilishi uni samarali boshqarish koʻnikmasini namoyon qiladi. oʻz oʻzini boshqarish emsional intellektning asosiy tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, pedagogning oʻz faoliyatini tashkil etishi va vaziyatga muvofiq harakat qilishini taʼminlaydi. Oʻz oʻzini boshqarish kompetensiyasi boʻlajak oʻqituvchining ichki intizomi, hissiyotlarni nazorat qilish, maqsadga yoʻnalgan faoliyatini samarali tashkil etish koʻnikmasini egalligini ifodalaydi. U oʻqituvchining kasbiy madaniyati, emotsional barqarorligi va taʼlim samaradorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Moslashuvchanlik va ijtimoiy amaliy koʻnikmalarga egalik** ham ijtimoiy intellektning muhik tarkibiy qismi sifatida pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur hisoblandi. Moslashuvchanlik, yaʼni adaptivlik boʻlajak oʻqituvchining yangi sharoitlar va yangi talablarga, vaziyatlar va munosabatlardagi oʻzgarishlarga tez va samarali moslashishini taʼminlaydi. Ijtimoiy amaliy koʻnikmalarga egalik boʻlajak oʻqituvchilarning ijtimoiy vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qila olishi, oʻz bilim va koʻnikmalarini amaliy holatlarda qoʻllay bilishi, jamiyatda faol ishtirok etish koʻnikmasiga egaligini ifodalaydi. Moslashuvchanlik talabalarning oʻzgarishlarga moslashishini taʼminlaydi, ijtimoiy amaliy koʻnikmalarga egalik esa, ularning istiqboda pedagogik jamoada samarali amaliy faoliyat koʻrsatilariga imkon beradi. Moslashuvchanlik va ijtimoiy amaliy koʻnikmalarga egalik ijtimoiy intellektning muhim komponentlaridan biri boʻlib, ayniqsa u boʻlajak oʻqituvchida shakllantirilishi zarur boʻlgan kasbiy komptensiyalar sirasiga kiradi.

Ijtimoiy intellekt muntazam rivojlanish xarakteriga ega. Shuning uchun ham boʻlajak oʻqituvchilarda qulay pedagogik muhitda shakllanadi va tarbiyalanadi. Ushbu maqsadga yoʻnaltirilgan pyedagogik jarayonda innovatsion metodlar, interaktiv strategiyalar, guruhli ish shakllari, muammoli vaziyatlar va keyslar, rolli oʻyinlar va treninglar talabalarda ijtimoiy intellektni jadal tarzda shakllanishi va rivojlanishini taʼminlaydi. Bu esa boʻlajak oʻqituvchilarning istiqboldagi kasbiy faoliyatida sinfdan qulay pedagogik-psixologik muhit, oʻqituvchi-oʻquvchi, oʻquvchi-oʻquvchi oʻzaro munosabatlari hamda unga oid ijtimoiy tajribani shakllantirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Boʻlajak oʻqituvchilarda ijtimoiy intellektining yuqori darajaga koʻtarilishi kasbiy shakllanish samaradorligini taʼminlovchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy intellekt intellektual-ijodiy qobiliyat sifatida ijtimoiy manfaatdorlik orqali muloqotning muvaffaqiyatini belgilaydi. Ijtimoiy manfaatdorlik esa oʻz navbatida identifikatsiya, empatiya, hamkorlik va altruizm jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonlar oʻqituvchi kasbiy faoliyatida muhim oʻrin egallaydi. Chunki mazkur jarayonlar muloqot orqali oʻqituvchilar, hamkasblar, ota-onalar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlanirishga qaratilgan. Shu bilan bir ijtimoiy intellektning asosiy tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy manfaatdorlikni ham koʻrsatish mumkin. U kommunikativ, kognitiv jarayonlarini oʻzida mujassamlashtiradi, tartibga soladi hamda shaxslararo taʼsir asosida jamiyat aʼzolarining xulq-atvorini toʻgʻri tushunish va munosib baholashga koʻmaklashadi. Ijtimoiy intellektga ega shaxs, jumladan oʻqituvchi quyidagi sifatlarga egaligi bilan tavsiflanadi: ijtimoiy his tuygʻularninng rivojlanganligi, muloqot va muloqotdoshlarining faoliyat jarayonida oʻzaro ijobiy munosabatlar oʻrnata olishi va ularni qoʻllab-quvvatlash koʻnikmasiga egaligi kabilar. Boʻlajak oʻqituvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish alohida shaxsiy kasbiy ahamiyatga ega boʻlib, ularning istiqboldagi kasbiy faoliyati jarayonida muvaffaqiyatga erishishlarini taʼminlaydi.

**Xulosa.** Olib borilgan nazariy-tahliliy izlanishlar shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy intellekt shaxsning ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishini taʼminlovchi murakkab, koʻp komponentli intellektual tuzilma hisoblanadi. U ijtimoiy senzitivlik, ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy xotira va ijtimoiy tafakkur kabi tarkibiy qismlarning oʻzaro uzviy integratsiyasi asosida namoyon boʻladi. Mazkur tarkibiy qismlar pedagogning shaxslararo munosabatlarni anglash, oʻquvchilarning emotsional holatini baholash, ularning xulq-atvorini oldindan bashorat qilish hamda pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvni amalga oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni asoslaydiki, pedagogik faoliyat jarayonida ijtimoiy intellekt oʻqituvchining kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon boʻladi. Xususan, yuqori darajada rivojlangan ijtimoiy intellekt pedagogga oʻquvchilar bilan samarali muloqot oʻrnatish, sinf jamoasida sogʻlom psixologik muhitni shakllantirish, ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv hal etish hamda taʼlim-tarbiya jarayonining subyektlari oʻrtasida oʻzaro ishonchni mustahkamlash imkonini beradi.

Shuningdek, ijtimoiy intellekt pedagogning refleksiv faoliyatini faollashtiradi, uning pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida ijtimoiy omillarni chuqur hisobga olishiga zamin yaratadi. Bu esa taʼlim jarayonining individuallashtirilishi, oʻquvchilarning shaxsiy ehtiyoj va imkoniyatlarini inobatga olgan holda pedagogik taʼsir koʻrsatishni taʼminlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy intellekt pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiruvchi, pedagog shaxsining kasbiy-axloqiy yetukligini belgilovchi va taʼlim jarayonining

ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta'minlovchi muhim integrativ intellektual sifat sifatida baholanadi. Shu bois pedagoglarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ijtimoiy intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik mexanizmlar va texnologiyalarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Thorndike, E. L. (1920). *Intelligence and Its Uses*. Harper's Magazine.
2. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.
3. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.
4. Sternberg, R. J. (1985). Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Allport, G. W. (1937). *Personality: A Psychological Interpretation*. New York: Holt.
6. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.
7. Mikhaylova, E. S. (2001). *Social Intelligence: Theory and Measurement*. Moscow.
8. Kdirbayeva H.M. O'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida. Academic research in educational sciences. Volume 2.5, 2021.
9. Butayeva U.A. Talabalar ijtimoiy intellekti psixologik yetuklik komponenti sifatida. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye 2018

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 1 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).